



THE EUROPEAN UNION CORPORATE SUSTAINABILITY DUE DILIGENCE DIRECTIVE: THE POST-OMNIBUS REFORM LEGAL FRAMEWORK AND A PHASED REGULATORY MODEL FOR UZBEKISTAN

Shohsaidkhon Mansurov

Master's Student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Science MTN-0726-0324

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD), Omnibus Directive, business and human rights, ESG, Brussels Effect, Uzbekistan, responsible business conduct.

Received: 26.07.26

Accepted: 27.07.26

Published: 28.07.26

Abstract: This article presents a systematic analysis of Uzbekistan's investment, corporate, labor, and environmental legislation from the standpoint of its compliance with due diligence standards set out in the Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD), the UN Guiding Principles on Business and Human Rights, and the OECD Guidelines for Responsible Business Conduct. The analysis is conducted in the context of the European Union's experience with mandatory due diligence and the amendments introduced by Omnibus I Directive (EU) 2026/470.

The article also examines Uzbekistan's reforms in implementing international labor and environmental standards, its existing capacity, and the insufficiency of the current legal framework in this area. Taking into account the key conclusions drawn from the Omnibus I package – particularly the need for phased implementation of reforms – the article proposes a four-stage model for incorporating due diligence and ESG-related standards into Uzbekistan's national legislation. This model begins with the introduction of voluntary guidelines and mandatory sustainability reporting practices. In subsequent stages, it provides for the gradual expansion of legal obligations, culminating in the adoption of a

YEVIROPA ITTIFOQINING KORPORATIV BARQARORLIK BO‘YICHA DUE DILIGENCE DIREKTIVASI: OMNIBUS ISLOHOTLARIDAN KEYINGI HUQUQIY HOLAT VA O‘ZBEKISTON UCHUN BOSQICHMA-BOSQICH TARTIBGA SOLISH MODELII

Shohsaidxon Mansurov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti magistranti

Ilmiy identifikatsiya raqami: MTN-0726-0324

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD), Omnibus Directive; biznes va inson huquqlari; ESG; Bryussel Effect; O‘zbekiston; mas’uliyatli biznes yuritish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Yevropa Ittifoqining majburiy due diligence tajribasi hamda Omnibus I Direktivasining (EU) 2026/470-sonli o‘zgartirishlari kontekstida O‘zbekistonning investitsiya, korporativ, mehnat va atrof-muhitga oid qonunchiligini, CSDDD, BMTning Biznes va inson huquqlari bo‘yicha yo‘naltiruvchi tamoyillari hamda OECDning mas’uliyatli biznes yuritish bo‘yicha ko‘rsatmalarida nazarda tutilgan due diligence standartlariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonning xalqaro mehnat va atrof-muhit standartlarini amalga oshirish sohasidagi islohotlarini, mavjud salohiyatini, shuningdek ushbu sohadagi huquqiy bazaning yetarli emasligini ko‘rsatadi. Omnibus I paketidan olingan asosiy xulosalar, xususan islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurati inobatga olinib, maqolada due diligence va ESG bilan bog‘liq standartlarni O‘zbekiston qonunchiligiga joriy etishning to‘rt bosqichli modeli taklif qilinadi. Mazkur model, avvalo, ixtiyoriy ko‘rsatmalar va majburiy barqarorlik bo‘yicha hisobot berish amaliyotini yo‘lga qo‘yishni, keying bosqichlarda esa huquqiy majburiyatlarni kengaytirishni ilgari surib, “Mas’uliyatli biznes yuritish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish bilan yakunlanadi.

ДИРЕКТИВА ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА О КОРПОРАТИВНОЙ ПРОВЕРКЕ ДОЛЖНОЙ ОСМОТРИТЕЛЬНОСТИ В ОБЛАСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ:

**ПРАВОВОЕ СОСТОЯНИЕ ПОСЛЕ РЕФОРМ OMNIBUS И ПОЭТАПНАЯ МОДЕЛЬ
ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА****Шохсаидхон Мансуров***Магистрант**Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека**Научный идентификационный номер: MTN-0726-0324**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD), Omnibus Directive, права человека, ESG, Брюссельский эффект, Узбекистан, ответственное ведение бизнеса.

Аннотация: В данной статье в контексте опыта Европейского Союза по обязательной due diligence и поправок к Директиве Omnibus I (EU) 2026/470 проводится системный анализ инвестиционного, корпоративного, трудового и экологического законодательства Узбекистана с точки зрения его соответствия стандартам due diligence, предусмотренным в CSDDD, Руководящих принципах ООН в области бизнеса и прав человека, а также Руководствах ОЭСР по ответственному ведению бизнеса.

Кроме того, в статье освещаются реформы Узбекистана в сфере внедрения международных трудовых и экологических стандартов, имеющийся потенциал, а также недостаточность правовой базы в этой области. С учётом основных выводов пакета Omnibus I, в частности необходимости поэтапной реализации реформ, в статье предлагается четырёхэтапная модель внедрения стандартов due diligence и связанных с ESG требований в законодательство Узбекистана.

Данная модель предусматривает на первом этапе введение добровольных рекомендаций и практики обязательной отчётности по устойчивому развитию, на последующих этапах — расширение правовых обязательств и завершается принятием закона «О ответственном ведении бизнеса».

Kirish. Yevropa Ittifoqining Korporativ barqarorlik (due diligence) Direktivasi (CSDDD) 2024-yilda qabul qilinishi ixtiyoriy korporativ javobgarlik standartlarini majburiy huquqiy

majburiyatlarga aylantirish bo'yicha eng ulkan urinishni belgiladi. Oradan ikki yil o'tmay, Omnibus I Direktivasi (EU) 2026/470 CSDDDning qo'llanish doirasini sezilarli darajada kamaytirdi, uning iqlim o'tish rejasi bo'yicha majburiyatini bekor qildi hamda yagona fuqarolik javobgarligi tartibini olib tashladi.

Transmilliy korporativ faoliyatni huquqiy tartibga solish tizimi so'nggi o'n besh yil ichida tub o'zgarishlarni boshidan kechirdi. 2011-yilda BMTning Biznes va inson huquqlari bo'yicha yo'naltiruvchi tamoyillari (UNGPs) inson huquqlari sohasida due diligence tushunchasini barcha biznes subyektlari uchun ixtiyoriy talab sifatida ilgari surgan edi[1]. Keyinchalik ushbu konsepsiya xalqaro korporativ boshqaruvning muhim elementlari qatoridan o'rin egallagan holda, 2024-yilda qabul qilingan Korporativ barqarorlik bo'yicha due diligence to'g'risidagi Direktivada (Directive (EU) 2024/1760) huquqiy majburiyat darajasiga ko'tarildi.

Mazkur Direktiva Yevroittifoq hududida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalarning inson huquqlari va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga undaydi; bu majburiyatni ta'minlash choralari sifatida ma'muriy nazorat, aylanmaga asoslangan jarimalar va yagona fuqarolik javobgarligi tartibi bilan ta'minlandi[3].

Biroq 2026-yil boshiga kelib Yevropa Ittifoqining iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan siyosiy yondashuv ushbu modelni qayta ko'rib chiqishga undadi. 2026-yil 26-fevralda Yevropa Ittifoqining Rasmiy jurnalida e'lon qilingan va 2026-yil 18-martdan kuchga kirgan Omnibus I Direktivasi (EU) 2026/470 Korporativ barqarorlik bo'yicha due diligence rejimiga bir qator o'zgartirishlar kiritdi. Unga ko'ra, direktivaning amal qilish doirasi, 1000 dan ortiq xodimga ega va yillik aylanmasi 450 mln yevrodan oshadigan korporatsiyalar bilan cheklanadigan bo'ldi, shuningdek kompaniyalar uchun iqlim o'tish rejasini qabul qilish majburiyati bekor qilindi, yagona fuqarolik javobgarligi mexanizmi o'rniga milliy huquq tizimi qo'llanilishi belgilanib, yangi qoidalarni tatbiq etilish muddati 2029-yil 26-iyulgacha kechiktirildi[4].

Korporativ faoliyatni tartibga solish yuzasidan chiqarilgan mazkur yondashuvining dastlab tez sur'atlarda joriy etilishi, keyinchalik esa kechiktirilishi ba'zi shartlarini yumshatilishi Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi davlatlar uchun ham amaliy va nazariy ahamiyatga egadir. Xususan, Yevropa Ittifoqi bilan faol savdo-iqtisodiy hamkorlik qilayotgan uchinchi mamlakatlar Yevroittifoqning majburiy "due diligence" tajribasidan qanday xulosalar chiqarishi va ushbu tizimni milliy qonunchilikka qay tarzda tatbiq etishi mumkin degan o'zinli savol tug'iladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda bu masala yetarlicha yoritilmagan. CSDDD bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar asosan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va boshqa rivojlangan yurisdiksiyalarga qaratilgan[26]. Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar

va ularning eksportyor korxonalari hamda Yevropa kompaniyalari o'rtasida tuziladigan savdo-tijorat shartnomalar orqali Yevroittifoqdan tashqarida bo'lgan davlatlar ham CSDDD talablariga tobora ko'proq duch kelmoqda. Biroq, mazkur jarayonning huquqiy oqibatlari va amaliy ta'siri bugungi kunga qadar yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari huquqiy tizimlarining CSDDD standartlariga moslashish salohiyati hamda ushbu standartlarni milliy qonunchilikka joriy etishning huquqiy mexanizmlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ishlari nisbatan kamroq hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Korporativ barqarorlik bo'yicha majburiy due diligence (CSDDD) talablarining O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi uchun ahamiyatini baholash hamda mazkur direktiva talablarini milliy huquq tizimiga integratsiya etishning imkoniyatlarini tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonning tanlanishi so'nggi yillarda keng ko'lamli iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning amalga oshirilishi fonida mamlakatning Yevropa Ittifoqi bilan tashqi savdo aloqalari izchil kengayib borishi bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, O'zbekiston eksportida paxta-to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati mahsulotlari muhim o'rin egallaydi. Aynan ushbu tarmoqlar inson huquqlari, mehnat standartlari va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalar nuqtai nazaridan korporativ due diligence mexanizmining bevosita ta'sir doirasiga kiradi. Bundan tashqari O'zbekiston, Yevroittifoqning GSP+ preferensiyalar tizimidan foydalanuvchi davlat sifatida inson huquqlari, mehnat standartlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshi boshqaruvga oid 27 ta xalqaro konvensiyaga a'zo davlat hisoblanadi shunga asosan 2021-yil 10-apreldan e'tiboran Yevropa Ittifoqi mazkur tizim doirasida O'zbekistondan import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini imtiyozlarini qo'llay boshladi[5]. Bularning barchasi O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan tobora chuqurlashib iqtisodiy-ijtimoiy, hamda savdo aloqalarini ko'rsatadi hamda Korporativ barqarorlik direktivasi talablarini chuqur o'rganish hamda uni milliy huquq tizimiga ta'sirni tahlil qilish lozimligini ko'rsatadi.

Maqolaning obyekti Korporativ barqarorlik bo'yicha due diligence direktivasi hamda uning Omnibus I paketidan keyingi holatni tahlil qiladi. Xususan, ular iqlim o'zgarishiga oid o'tish rejasini ishlab chiqish majburiyati hamda fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlariga bag'ishlangan normalarni tahlil qilgan bo'lib, mazkur qoidalar Omnibus islohotlari natijasida sezilarli darajada qayta ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonning korporativ huquq sohasidagi milliy qonunchilik bazasi due diligence tamoyillari nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida investitsiyalar, korporativ boshqaruv, mehnat munosabatlari va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik normalari o'rganilib, ularning zamonaviy korporativ barqarorlik standartlariga muvofiqligi baholanadi.

Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tartibga solish modeli taklif etiladi. Mazkur model Omnibus islohotlari tajribasidan kelib chiqib ishlab chiqilgan bo'lib, due diligence sohasidagi huquqiy talablarni joriy etishda mutanosiblik, amaliy imkoniyatlar va institutsional salohiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning amaldagi qonunchiligini tahlil qilish, ayrim Yevropa davlatlarining milliy due diligence qonunchiligini qiyosiy-huquqiy o'rganish hamda CSDDDning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan sud amaliyotini tahlil qilish usullariga asoslanadi. Xususan, Fransiya, Germaniya va Norvegiyaning due diligence sohasidagi normativ-huquqiy yondashuvlari, shuningdek, Buyuk Britaniya va Niderlandiya sudlarining qarorlari undagi bosh kompaniya javobgarligi hamda korporativ iqlim majburiyatlariga oid qarorlari o'rganiladi.

Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor O'zbekiston qonunchiligida "due diligence" atamasining mavjudligiga emas, balki milliy huquq tizimi xalqaro standartlarda nazarda tutilgan talablarni qay darajada ta'minlay olishiga qaratiladi. Shu sababli korporativ boshqaruvda mavjud xavflarni aniqlash, tahlil qilish va oldini olish, faoliyat yuritishda oshkorlikni ta'minlash hamda salbiy oqibatlarni bartaraf etishga oid huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi.

Raymond Vernon o'zining 1971-yildagi "The Multinational Spread of US Enterprises" kitobida Transmilliy korporatsiyalarni davlatni ichidagi moliyaviy siyosatni shakllantirishga qodir bo'lgan mustaqil va kuchli iqtisodiy o'yinchilarga aylanganini ta'kidlagan edi. Undan keying[25] ilmiy tadqiqotlarda esa transmilliy korporatsiyalar faoliyati bir nechta mamlakat yurisdiksiyalarini qamrab olganligi sababli, ammo huquqiy mas'uliyat alohida yuridik shaxslar o'rtasida parchalanib ketgani uchun, samarali boshqaruv va javobgarlik mexanizmi zaiflashib qolishi qayd etgan. 2011-yilda BMT Inson huquqlari kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilingan Inson huquqlari va biznes bo'yicha rahbar tamoyillar (UNGPs) biznes faoliyatining inson huquqlariga ta'sirini tartibga soluvchi "Himoya qilish, hurmat qilish va huquqiy himoya vositalarini ta'minlash" konsepsiyasini shakllantirdi. Ushbu tamoyillar davlatlarning inson huquqlarini biznes faoliyati bilan bog'liq buzilishlardan himoya qilish majburiyatini, korxonalarning inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish bo'yicha mustaqil mas'uliyatini hamda huquqlari buzilgan shaxslar uchun samarali himoya vositalarini yaratish zarurligini belgilab berdi.

Mazkur tizimning markaziy elementi inson huquqlari bo'yicha due diligence (Human Rights Due Diligence – CSDDD) hisoblanadi. U korxonalarga o'z faoliyati, mahsulotlari yoki biznes aloqalari orqali inson huquqlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni aniqlash,

ularning oldini olish, kamaytirish va bu boradagi choralar natijalarini monitoring qilish imkonini beruvchi doimiy jarayonni anglatadi. Keyinchalik OECDning Ko'p millatli korxonalar uchun ko'rsatmalari hamda Mas'uliyatli biznes yuritish bo'yicha due diligence qo'llanmalari ushbu yondashuvni atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat huquqlari, korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar kabi sohalarga ham tatbiq etdi. Natijada due diligence inson huquqlariga oid mexanizmdan mas'uliyatli biznes yuritishning keng qamrovli vositasiga aylandi.

Korporativ mas'uliyatni ta'minlashning faqat ixtiyoriy standartlar mexanizmlari orqali ta'minlash yetarli natija bermayotgani haqidagi qarash ko'plab davlatlarda majburiy due diligence talablarini nazarda tutuvchi qonunchilikning shakllanishiga turtki berdi. Jumladan, Fransiyaning 2017-yilgi "Loi de vigilance" qonuni juda yirik fransuz kompaniyalaridan qonuni yirik kompaniyalardan o'z faoliyati, sho'ba korxonalari, subpudratchilari va yetkazib beruvchilari bilan bog'liq inson huquqlari hamda ekologik xavflarni aniqlash va boshqarishga qaratilgan hushyorlik (vigilance) rejasini ishlab chiqish, e'lon qilish va amalga oshirishni talab qildi. Mazkur majburiyatlar fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlari orqali ta'minlandi[16]. Shuningdek, Germaniyaning 2021-yilgi Ta'minot zanjiri due diligence to'g'risidagi qonuni yirik kompaniyalarga ma'muriy-huquqiy due diligence burchlarini yukladi va ularni Iqtisodiyot va eksport nazorati bo'yicha Federal idora amalga oshirdi; biroq Germaniya keyinchalik CSDDD transpozitsiyasini kutgan holda qonunning hisobot va ijro tarkibiy qismlarini sezilarli darajada qisqartirdi[15]. Norvegiyaning 2021-yilgi Shaffoflik to'g'risidagi qonuni OECD uslubidagi due diligence burchlarini jamoatchilikning axborot olish huquqi bilan birlashtirdi[17].

Mazkur milliy qonunlar BMTning Biznes va inson huquqlari bo'yicha rahbar tamoyillari (UNGPs) hamda OECD ko'rsatmalarida nazarda tutilgan umumiy due diligence yondashuviga tayangan bo'lsa-da, ularning tatbiq etilish doirasi, nazorat va ijro mexanizmlari hamda javobgarlik choralari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud edi. Aynan ushbu normativ xilma-xillik va huquqiy fragmentatsiya Yevropa Ittifoqi darajasida yagona va uyg'unlashtirilgan tartibga solish mexanizmini yaratish zaruratining asosiy sabablaridan biriga aylandi.

Majburiy due diligence institutiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda ushbu yondashuv, umuman olganda, ijobiy baholansa-da, uning amaliy samaradorligi va cheklovlari ham alohida ta'kidlanadi. Xususan, Bueno va Bright due diligence majburiyatlarining real ta'sirini ta'minlashda fuqarolik-huquqiy javobgarlik muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadilar. Ularning fikricha, faqat ma'muriy nazorat va sanksiyalar bilan cheklanish huquqlari buzilgan shaxslar uchun samarali himoya vositalarini kafolatlay olmaydi[27].

Shu bilan birga, Lichuma majburiy due diligence talablarining mazmunan emas, balki shaklan bajarilish xavfiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, korxonalar ayrim hollarda real xavflarni bartaraf etish o'rniga, turli hujjatlar tayyorlash yoki majburiyatlarni shartnomalar orqali quyi bo'g'inlarga yuklash bilan cheklanib qolishi mumkin[28].

McCorquodale va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa hatto mas'uliyatli kompaniyalar ham due diligence siyosatlarini kundalik biznes amaliyotiga to'liq integratsiya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatgan. Bu muammo, ayniqsa, ta'minot zanjirining bevosita hamkorlardan tashqaridagi bosqichlarida yaqqol namoyon bo'ladi[22].

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarda Yevropa Ittifoqining due diligence bo'yicha tajribasi, shu jumladan ushbu tartibga solish modelining keyingi o'zgarishlari va qisqartirilishi, Yevropa qiymat zanjirlariga integratsiyalashgan o'tish davri iqtisodiyotlari uchun qanday huquqiy xulosalar berishi lozimligi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan shu masalani o'rganishga qaratilgan.

Natijalar va Muhokama. Korporativ barqarorlik (due diligence) direktivasi va Omnibus I paketidan keyingi o'zgartirishlar

2024-yil iyun oyida qabul qilingan Korporativ barqarorlik bo'yicha due diligence direktivasi (CSDDD) OECDning Mas'uliyatli biznes yuritish bo'yicha due diligence ko'rsatmalariga tayangan holda korxonalar uchun kompleks due diligence tizimini joriy etdi. Direktiva doirasiga kiruvchi kompaniyalardan due diligence jarayonlarini o'z siyosati va risklarni boshqarish tizimlariga integratsiya qilish (7-modda), o'z faoliyati, sho'ba korxonalari hamda faoliyat zanjiri (chain of activities) bo'ylab biznes hamkorlari faoliyati bilan bog'liq inson huquqlari va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni aniqlash va baholash (8-modda), potensial salbiy ta'sirlarning oldini olish va ularni yumshatish (10-modda), real salbiy ta'sirlarni bartaraf etish va minimallashtirish (11–12-moddalar), manfaatdor tomonlar bilan mazmunli muloqot olib borish (13-modda), shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy etish (14-modda), ko'rilgan choralar samaradorligini muntazam monitoring qilish (15-modda) hamda due diligence faoliyati yuzasidan ommaga axborot taqdim etish (16-modda) talab qilindi[3]. CSDDDni avvalgi xalqaro va milliy hujjatlardan ajratib turuvchi bir nechta muhim jihatlar mavjud edi.

Birinchidan, direktiva korporativ javobgarlikni faqat yuridik shaxsning o'z faoliyati bilan cheklab qo'ymadi. Aksincha, kompaniyalarning biznes munosabatlari orqali yuzaga keladigan inson huquqlari va ekologik ta'sirlari ham due diligence majburiyatlari doirasiga kiritildi. Shu tariqa, javobgarlikning markaziga korporativ tuzilma emas, balki iqtisodiy munosabatlar va faoliyat zanjiri qo'yildi.

Ikkinchidan, direktivaning 22-moddasi kompaniyalardan Parij kelishuvining 1,5°C maqsadiga mos keluvchi iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha o'tish rejasini (transition plan) qabul qilish va amalga oshirishni talab qildi. Bu Yevropa Ittifoqi darajasida korporativ strategiyalarni xalqaro iqlim maqsadlari bilan bog'lovchi eng muhim va eng keng qamrovli majburiy huquqiy mexanizmlardan biri sifatida baholanadi.

Uchinchidan, direktivaning 29-moddasi due diligence majburiyatlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun kompaniyalar fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini belgilab, ushbu sohada uyg'unlashtirilgan javobgarlik asoslarini yaratdi. Shu bilan birga, a'zo davlatlar da'vo muddatlari, sud xarajatlari va vakillik da'volari bilan bog'liq protsessual qoidalar huquqlari buzilgan shaxslarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini amalda cheklab qo'ymasligini ta'minlashi lozim edi.

Davlat nazorati mexanizmlari fuqarolik javobgarligi tizimini to'ldirib turdi. Direktiva a'zo davlatlardan tergov o'tkazish, majburiy ko'rsatmalar berish va samarali moliyaviy sanksiyalar qo'llash vakolatiga ega bo'lgan nazorat organlarini tashkil etishni talab qildi. Bunda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng yuqori jarima kompaniyaning global sof aylanmasining kamida 5 foizigacha yetishi mumkinligi nazarda tutilgan edi. Shu bilan birga, CSDDDning dastlabki modeli keyinchalik Yevropa Ittifoqining Omnibus islohotlari doirasida qayta ko'rib chiqila boshlandi. Mazkur islohotlar direktivaning qo'llanish doirasi, hisobot majburiyatlari va ayrim due diligence talablarini soddalashtirishga qaratilgan bo'lib, Yevropa Ittifoqining korporativ barqarorlik sohasidagi tartibga solish siyosatining keyingi evolyutsiyasini aks ettiradi.

Omnibus qisqartirishi: (EU) 2026/470 Direktivasi

CSDDDning dastlabki ko'rinishi uzoq muddat saqlanib qolmadi. Yevropa Komissiyasining raqobatbardoshlikni oshirish va tartibga solishni soddalashtirish siyosati doirasida ishlab chiqilgan Omnibus I paketi 2025-yil fevral oyida taklif etildi, 2025-yil dekabr oyida Yevropa Parlamenti va Kengashi o'rtasida siyosiy kelishuvga erishildi hamda 2026-yil fevral oyida Directive (EU) 2026/470 sifatida qabul qilinib, kuchga kirdi. Mazkur islohot CSDDDning qo'llanish doirasi, muddatlari, due diligence metodologiyasi, iqlim bo'yicha majburiyatlari va javobgarlik tizimiga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi.

Direktivaning qo'llanish doirasi sezilarli darajada qisqartirildi. Endilikda u faqat 5000 nafardan ortiq xodimga ega va global sof aylanmasi 1,5 milliard yevrodan oshadigan Yevropa Ittifoqi kompaniyalariga hamda Yevropa Ittifoqi hududida 1,5 milliard yevrodan ortiq sof aylanma hosil qiluvchi uchinchi davlat kompaniyalariga nisbatan tatbiq etiladi. Natijada dastlabki CSDDD bilan qamrab olinishi rejalashtirilgan kompaniyalarning katta qismi direktiva doirasidan chiqarildi.

Shuningdek direktivaning bosqichma-bosqich qo'llanilishi nazarda tutilgan dastlabki jadvali bekor qilinib, yagona qo'llanish sanasi sifatida 2029-yil 26-iyul belgilandi. Shu bilan birga, a'zo davlatlar direktiva qoidalarini milliy qonunchilikka 2028-yil 26-iyulgacha implementatsiya qilishi lozim etib belgilandi.

Shu jumladan due diligence metodologiyasi qayta ko'rib chiqildi. Kompaniyalardan faoliyat zanjirini to'liq va batafsil xaritalash emas, balki xavfga asoslangan yondashuv asosida eng muhim salbiy ta'sirlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash talab etiladi. Biroq Yevropa Parlamenti muzokaralari natijasida due diligence majburiyatlarini faqat bevosita biznes hamkorlari bilan cheklash haqidagi takliflar qabul qilinmadi. Natijada faoliyat zanjiri bo'ylab xavflarni aniqlashga asoslangan yondashuv saqlab qolindi va direktivaning asosiy metodologik negizi o'z kuchini saqlab qoldi. Shuningdek, o'zgartirilgan matnda kompaniya eng jiddiy va ehtimoli yuqori bo'lgan salbiy ta'sirlarni oqilona ravishda ustuvorlashtirgan bo'lsa, kamroq ahamiyatli ta'sirlarni bir vaqtning o'zida bartaraf etmagani uchun javobgarlikka tortilmasligi aniqlashtirildi.

Hamda iqlim masalasiga oid talablar sezilarli darajada yumshatildi. Dastlabki CSDDDning 22-moddasida nazarda tutilgan iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha o'tish rejasini qabul qilish va amalga oshirish majburiyati bekor qilindi. Iqlim o'tish rejalari masalasi asosan korporativ hisobot va oshkorlik rejimi doirasida saqlab qolindi hamda bu boradagi talablar ko'proq CSRD tizimi orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Javobgarlik va sanksiyalar tizimi ham qayta shakllantirildi. Dastlabki direktivada nazarda tutilgan uyg'unlashtirilgan fuqarolik javobgarligi mexanizmi bekor qilinib, due diligence majburiyatlarining buzilishi oqibatida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari asosan milliy delikt va protsessual huquq normalariga havola qilindi. Bu esa Yevropa Ittifoqi doirasida huquqiy tartibga solishning qayta fragmentatsiyalanishi xavfini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, moliyaviy sanksiyalarning maksimal miqdori kompaniyaning global sof aylanmasining 5 foizidan 3 foizigacha kamaytirildi. O'zgartirilgan direktiva Komissiyadan 2031-yilgacha yangi tizimning samaradorligini, shu jumladan fuqarolik javobgarligini yanada uyg'unlashtirish zaruratini qayta baholashni ham talab qiladi.

Umuman olganda, Omnibus I islohoti CSDDDning asosiy konsepsiyasidan voz kechmagan bo'lsa-da, uning tartibga solish intensivligini sezilarli darajada pasaytirdi. Natijada Yevropa Ittifoqi korporativ barqarorlikni ta'minlash maqsadi bilan iqtisodiy raqobatbardoshlikni saqlash o'rtasida yangi muvozanat izlash yo'liga o'tdi.

Baholash: nima saqlanib qoladi va qisqartirish nimadan dalolat beradi

Omnibus I paketi islohotlarini majburiy due diligence tizimidan voz kechish sifatida baholash noto'g'ri bo'ladi. Chunki CSDDDning asosiy g'oyasi o'zgarishsiz qolgan. Ya'ni, Yevropa Ittifoqi bozorida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar o'zlarining butun qiymat zanjiri bo'ylab inson huquqlari va atrof-muhitga ta'sirlarni aniqlash, oldini olish va kamaytirishga qaratilgan due diligence choralarini amalga oshirishi shart. Ushbu majburiyat xavfga asoslangan yondashuv asosida bajariladi va vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinadi. Bu ayniqsa O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakat eksportchilari hamkorlik qiladigan yirik chakana savdo tarmoqlari, kiyim-kechak brendlari, xom ashyo kompaniyalari, avtomobil va elektronika ishlab chiqaruvchilari aynan ushbu qoidalarga bo'ysunadigan kompaniyalardir. Shu sababli Omnibus islohoti qamrovni ma'lum darajada qisqartirgan bo'lsa ham, O'zbekiston korxonalari uchun amaliy talablar deyarli o'zgarmaydi. Yevropalik hamkorlar avvalgidек shartnomalar orqali due diligence talablarini qo'yishi, yetkazib beruvchilar uchun korporativ barqarorlik shartlariga rioya etishni talab qiladi hamda audit va monitoring mexanizmlaridan foydalanishda davom etadi.

Shu bilan birga, Omnibus islohoti CSDDD turidagi tartibga solishni joriy etishni rejalashtirayotgan davlatlar uchun bir necha muhim xulosalarni beradi.

Dastlab, mutanosiblik tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Korxonalarining hajmi va imkoniyatlariga nomutanosib deb baholangan majburiyatlar CSDDD qabul qilinganidan ko'p o'tmay uni qayta ko'rib chiqish bo'yicha kuchli siyosiy bosimni yuzaga keltirdi. Shu jumladan, ijro mexanizmining dizayni majburiyatlarning qat'iyligidan kam ahamiyatga ega emas. Xususan, CSDDDdagi yagona fuqarolik javobgarligi rejimidan voz kechilishi turli milliy huquq tizimlarida javobgarlik, sababiy bog'liqlik va protsessual qoidalarni uyg'unlashtirish qanchalik murakkab ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, iqlimga oid majburiyatlar eng bahsli yo'nalish bo'lib qolmoqda. Omnibus islohoti doirasida korxonalarining majburiy iqlim o'tish rejasiga oid talablar sezilarli darajada yumshatildi, bu esa xulq-atvorga oid majburiy iqlim majburiyatlariga nisbatan siyosiy kelishuv hali to'liq shakllanmaganini, biroq iqlim bo'yicha oshkoralik va hisobot berish talablari nisbatan barqaror saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Mazkur xulosalar O'zbekiston uchun taklif etilayotgan huquqiy modelni ishlab chiqishda alohida e'tiborga olinishi lozim.

CSDDD birdaniga yoki huquqiy bo'shliqda vujudga kelgan hujjat emas. Uning asosida sud amaliyotida uzoq yillar davomida shakllangan yondashuvlar yotadi. Xususan, korporativ javobgarlikni faqat kompaniyaning bevosita huquqbuzarligi bilan emas, balki uning nazorat, monitoring va xavflarni boshqarish bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi bilan ham bog'lash g'oyasi ingliz va golland sudlari amaliyotida bosqichma-bosqich rivojlandi. Bu jarayonda alohida yuridik shaxsning mustaqilligi tamoyili mutlaq himoya vositasi sifatida emas,

balki muayyan sharoitlarda cheklanishi mumkin bo'lgan prinsip sifatida talqin qilina boshladi. Shu nuqtai nazardan, quyida tahlil qilinadigan uchta sud ishi transmilliy delikt huquqining umumiy sharhi sifatida emas, balki keyinchalik CSDDda normativ mustahkamlangan muayyan huquqiy yondashuvlarning shakllanishiga asos bo'lgan doktrinal manbalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

1. Vedanta Resources Plcv Lungowe: bosh kompaniyaning sho'ba kompaniya majburiyatlari yuzasidan javobgarligi.

Vedanta Resources Plcv Lungowe ishida Zambianing 1 800 dan ortiq aholisi Nkana mis koni faoliyati oqibatida suv manbalari ifloslanganini vaj qilib, kon operatorining Buyuk Britaniyada joylashgan bosh kompaniyasiga nisbatan da'vo qo'zg'atgan[21]. Yurisdiksiya masalasini ko'rib chiqishda Buyuk Britaniya Oliy sudi bosh kompaniya sho'ba korxona faoliyati uchun hech qachon javobgar bo'la olmaydi degan yondashuvni rad etdi. Lord Briggsning ta'kidlashicha, agar bosh kompaniya guruh siyosatini ishlab chiqsa, uning bajarilishini nazorat qilsa yoki nazorat qilayotgandek taassurot uyg'otsa, u umumiy huquq qoidalariga ko'ra g'amxo'rlik (duty of care) burchiga ega bo'lishi mumkin[21]. Ushbu qarorning due diligence nuqtai nazaridan ahamiyati shundaki, u guruh darajasida xavflarni boshqarish huquqiy javobgarlikni yuzaga keltirishi mumkinligini e'tirof etdi. Demak, majburiy due diligence bosh kompaniya uchun mutlaqo yangi majburiyat yaratmaydi, balki sud amaliyotida allaqachon shakllangan javobgarlik mezonlarini qonunchilik darajasida aniq belgilaydi.

2. Okpabi v Royal Dutch Shell plc: shakl emas, balki amaldagi nazorat

Okpabi v Royal Dutch Shell ishida Niger deltasidagi Ogale va Bille jamoalari Shellning Nigeriyadagi sho'ba korxonasi faoliyati natijasida yuzaga kelgan neft ifloslanishi uchun bosh kompaniya ham javobgar ekanligini da'vo qildi[20]. Buyuk Britaniya Oliy sudi ishni ko'rib chiqish uchun yetarli asos mavjudligini e'tirof etib, bosh kompaniyaning javobgarligi korporativ guruh ustidan amalga amalga oshirilgan nazorat darajasiga bog'liqligini ta'kidladi. Sud ichki hisobotlar, majburiy guruh standartlari va operatsion nazoratga oid hujjatlar bunday javobgarlikni aniqlashda muhim dalil ekanligini qayd etdi[20]. Ushbu qaror CSDDD uchun muhim doktrinal asos yaratdi. U guruh darajasidagi barqarorlik boshqaruvi, audit va muvofiqlik tizimlari sud nazoratiga tortilishi mumkinligini tasdiqladi. Shu bois Direktivadagi hujjatlashtirilgan xavf baholash, monitoring va hisobot berish talablari sud amaliyotida shakllangan ushbu yondashuvning normativ ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

3. Milieudefensie v Royal Dutch Shell: iqlim javobgarligining chegaralari.

Milieudefensie v Shell ishi korporativ iqlim javobgarligining chegaralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. 2021-yilda Gaaga tuman sudi Shell zimmasiga 2030-yilgacha CO₂

chiqindilarini 2019-yil darajasiga nisbatan sof 45 foizga kamaytirish majburiyatini yukladi[18]. Biroq 2024-yilda Gaaga apellyatsiya sudi ushbu aniq miqdoriy majburiyatni bekor qilib, alohida kompaniya uchun bunday foizni belgilashga yetarli huquqiy va ilmiy asos mavjud emasligini qayd etdi. Shu bilan birga, sud Shellning iqlim o'zgarishi xavfini kamaytirish bo'yicha g'amxo'rlik burchi mavjudligini va bu majburiyat inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liqligini tasdiqladi[19]. Ushbu yondashuv CSDDdagi Omnibus islohoti bilan hamohangdir. Har ikkala holatda ham korporatsiyalarning iqlim bo'yicha majburiyatlari saqlab qolingan bo'lsa-da, ularga nisbatan qat'iy miqdoriy natijalarni belgilashdan voz kechildi. Bu esa korporativ iqlim javobgarligi tan olingan bo'lsa ham, global emissiyalarni alohida kompaniyalar o'rtasida qanday mezon asosida taqsimlash masalasi hanuz yakdil huquqiy yechimga ega emasligini ko'rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan sud amaliyoti transmilliy korporativ javobgarlikka oid to'rtta asosiy tamoyilni shakllantirdi. Birinchidan, sudlar rasmiy korporativ tuzilishga emas, balki kompaniyaning amaldagi nazorat darajasiga e'tibor qaratadi. Ikkinchidan, javobgarlik faqat bevosita huquqbuzarlik bilan cheklanmay, boshqaruv, nazorat va xavflarni boshqarishdagi kamchiliklarni ham qamrab oladi. Uchinchidan, barqarorlikni boshqarish tizimi doirasida yaratilgan hujjatlar muhim sud dalili sifatida baholanadi. To'rtinchidan, korporativ iqlim majburiyatlari tan olinadi, biroq sudlar ularga qat'iy miqdoriy ko'rsatkichlarni belgilashga ehtiyotkor yondashadi.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston uchun ham muhimdir. Bir tomondan, ular O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan transmilliy korporatsiyalar va ularning yetkazib beruvchilari amal qiladigan xalqaro javobgarlik standartlarini belgilaydi. Ikkinchi tomondan, ular milliy qonunchilikda due diligence tizimini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlarni, jumladan hujjatlashtirilgan xavflarni boshqarish, guruh darajasidagi nazorat, manfaatdor tomonlar bilan muloqot va shikoyat mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Korporativ barqarorlik qonunchiligini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston milliy qonunchilik bazasida va ulardagi mavjud ayrim bo'shliqlar hamda ularning tahlili

O'zbekiston so'nggi yillarda huquqiy va iqtisodiy islohotlarning keng ko'lamli dasturini amalga oshirdi. Biroq asosiy masala shundaki, amaldagi huquqiy baza xalqaro due diligence standartlari talab qiladigan funksiyalarni, ya'ni xavflarni oldindan aniqlash, ularning oldini olish va kamaytirish, manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish, shikoyat mexanizmlarini yaratish, barqarorlik bo'yicha hisobot berish hamda samarali javobgarlik choralarni ta'minlay oladimi. Quyida ushbu masala amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar kesimida tahlil qilinadi.

1. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun

2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-598) O'zbekistonda investitsiya siyosatining asosiy huquqiy negizini belgilaydi[12]. Qonun asosan investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ularga milliy rejim, huquqiy barqarorlik, foydani erkin olib chiqish va musodardan himoyalash kafolatlarini beradi. Biroq unda investorlarning inson huquqlari va atrof-muhitga ta'sirini baholash, oldini olish yoki kamaytirishga qaratilgan due diligence majburiyatlari nazarda tutilmagan. Shuningdek, qonunda xalqaro mas'uliyatli biznes yuritish standartlariga havola yoki investitsiya loyihalaridan ta'sirlangan manfaatdor tomonlar uchun shikoyat mexanizmlari ham mavjud emas.

Natijada investitsiyalarni rag'batlantirish tizimi barqarorlik talablari bilan bog'lanmagan. Bu esa davlatning investitsiya imtiyozlari, yer ajratish va boshqa qo'llab-quvvatlash choralari due diligence talablariga rioya etish bilan bog'lash imkoniyatini cheklaydi. Vaholanki, OECD tavsiyalariga ko'ra, mas'uliyatli biznes yuritish talablari investitsiya siyosati va investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarining ajralmas qismi bo'lishi lozim[35].

2. Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun va Korporativ boshqaruv kodeksi

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun korporativ boshqaruvni asosan aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga qaratadi. Direktorlar va ijro etuvchi organlarning majburiyatlari kompaniya hamda aksiyadorlar oldidagi fidutsiar burchlar bilan cheklanadi, oshkoralik talablari esa asosan moliyaviy hisobotlar va affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarga qaratilgan[13]. Xodimlar, mahalliy jamoalar, iste'molchilar va atrof-muhit manfaatlarini korporativ boshqaruvning mustaqil elementi sifatida e'tirof etilmagan. Shu sababli O'zbekiston korporativ qonunchiligida due diligence tizimini korporativ boshqaruvga integratsiya qilish uchun zarur huquqiy asos mavjud emas. Amaldagi qonunchilik boshqaruv organlariga qiymat zanjiridagi inson huquqlari va ekologik xavflarni aniqlash hamda nazorat qilish majburiyatini yuklamaydi. Natijada CSDDD nazarda tutadigan xavflarni boshqarish, manfaatdor tomonlar manfaatlarini hisobga olish va barqarorlikni korporativ boshqaruvga integratsiya qilish mexanizmlari milliy qonunchilikda o'z aksini topmagan.

3. 2022-yilgi Mehnat kodeksi va majburiy mehnat islohotlari

Mehnat huquqi O'zbekiston qonunchiligida xalqaro due diligence standartlariga eng yaqin soha hisoblanadi. 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan va 2023-yil apreldan kuchga kirgan yangi Mehnat kodeksi (O'RQ-798) mehnat munosabatlarini zamonaviylashtirdi, majburiy va bolalar mehnatini hamda kamsitishni taqiqlashni kuchaytirdi, milliy qonunchilikni Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) konvensiyalariga moslashtirdi[11]. Ushbu islohotlar xalqaro monitoring, ta'minot zanjirlaridagi shaffoflik talablari hamda O'zbekistonning global bozorlarga integratsiyalashuv jarayoni ta'sirida amalga oshirildi. Shu bilan birga, mazkur islohotlar due diligence tizimining

barcha elementlarini qamrab olmaydi. Amaldagi mehnat qonunchiligi davlat nazorati, inspeksiya va javobgarlik mexanizmlarini mustahkamlagan bo'lsa-da, korxonalarga o'z ta'minot zanjiri bo'ylab mehnat huquqlari bilan bog'liq xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish majburiyatini yuklamaydi. Natijada O'zbekiston korxonalari milliy qonunchilik talablariga rioya qilgan taqdirda ham, CSDDD doirasida Yevropa hamkorlari talab qiladigan korporativ due diligence standartlarini bajarish uchun qo'shimcha mexanizmlarni joriy etishga majbur bo'lmoqda.

4. Atrof-muhit qonunchiligi

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, ekologik ekspertiza, suv, atmosfera havosi va chiqindilar to'g'risidagi qonunlar hamda davlat ekologik ekspertizasi institutiga asoslanadi[14]. Ushbu tizim asosan ekologik ruxsat berish va davlat nazoratiga tayanadi: ekologik xavfi yuqori loyihalar davlat ekspertizasidan o'tkaziladi, xo'jalik yurituvchi subyektlar esa belgilangan ekologik me'yorlarga rioya etishi shart. Shuningdek, 2023-yilgi Konstitutsiya davlatning ekologik barqarorlikni ta'minlash majburiyati va fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini mustahkamladi[10].

Biroq amaldagi tizim korxonalarga butun qiymat zanjiri bo'ylab ekologik xavflarni muntazam aniqlash, baholash va boshqarish majburiyatini yuklamaydi. Ekologik ekspertiza loyiha boshlanishidan oldingi bosqich bilan cheklanadi, ekologik majburiyatlar esa asosan korxonaning o'z faoliyatiga taalluqli bo'lib, yetkazib beruvchilar yoki boshqa biznes hamkorlari faoliyatini qamrab olmaydi. Shuningdek, korxonalar uchun ekologik due diligence yoki barqarorlik bo'yicha ommaviy hisobot berish talabi ham mavjud emas. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligi CSDDD nazarda tutgan uzluksiz ekologik due diligence tizimidan sezilarli darajada farq qiladi.

IV. Oshkoralik: Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (Environmental, Social and Governance – ESG) sohasidagi huquqiy bo'shliq

O'zbekiston qonunchiligidagi eng katta bo'shliqlardan biri barqarorlik bo'yicha oshkoralik sohasida kuzatiladi. Amaldagi qonunchilikda yirik kompaniyalar, davlat korxonalari yoki banklar uchun barqarorlik (ESG) hisobotlarini e'lon qilish, iqlimga oid ma'lumotlarni oshkor etish yoki bunday hisobotlarning mazmuni va sifatiga oid yagona standartlar belgilangan emas. Bu holat amaliy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xalqaro moliya bozorlariga chiqishni istagan O'zbekiston kompaniyalari ESG hisobotlarini xorijiy standartlar asosida mustaqil tayyorlashga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investorlar va Yevropa kompaniyalari due diligence jarayonida zarur ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Natijada davlat ham kelgusida barqarorlik va due diligence sohasidagi majburiy talablarni samarali joriy etish uchun zarur axborot bazasiga ega emas.

Bo'shliq tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro korporativ due diligence tizimi nazarda tutadigan besh asosiy tartibga solish funksiyasidan O'zbekiston qonunchiligi hozircha faqat bittasini — mehnat va atrof-muhit sohasidagi minimal davlat standartlari hamda ularning ijrosini ta'minlash mexanizmini — nisbatan to'liq shakllantirgan. Biroq qolgan to'rtta element milliy huquq tizimida mavjud emas. Xususan, korxonalarga inson huquqlari va atrof-muhit xavflarini muntazam aniqlash va baholash majburiyati yuklanmagan; biznes hamkorlari va ta'minot zanjiri bo'ylab xavflarning oldini olish hamda ularni yumshatish bo'yicha korporativ burch nazarda tutilmagan; manfaatdor tomonlar bilan tizimli muloqot va operatsion darajadagi shikoyat mexanizmlari belgilanmagan; shuningdek, barqarorlik (ESG) bo'yicha oshkoralik va hisobot berish talablari ham joriy etilmagan.

Shunday qilib, O'zbekiston qonunchiligi korporativ faoliyatni asosan davlat nazorati va majburiy huquqiy standartlarga rioya etish modeli orqali tartibga soladi. Xalqaro bozorlarda esa tobora korxonaning o'zida joriy etilgan, hujjatlashtirilgan va ta'minot zanjiri bo'ylab xavflarni boshqarishga asoslangan due diligence modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tafovutning O'zbekiston eksportchilari uchun amaliy oqibatlari keyingi bobda tahlil qilinadi, undan keyingi bobda esa ushbu bo'shliqni bartaraf etishning huquqiy yo'llari taklif etiladi.

O'zbekiston Corporate Sustainability Due Diligence Directive (CSDDD) doirasidagi bevosita majburiyatlarga ega emas. Mamlakat kompaniyalarining aksariyati Direktivaning qo'llanish mezonlariga ham kirmaydi. Shu sababli CSDDD ularga to'g'ridan-to'g'ri huquqiy majburiyat yuklamaydi.

Biroq bu Direktivaning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ahamiyatsiz ekanligini anglatmaydi. Uning ta'siri Anu Bradford tomonidan ishlab chiqilgan Bryussel effekti nazariyasida ta'riflanganidek, shartnomaviy munosabatlar, axborot almashinuvi va bozor obro'si mexanizmlari orqali bilvosita namoyon bo'ladi. Natijada, Yevropa Ittifoqi kompaniyalari bilan hamkorlik qiluvchi yoki ushbu bozorga eksport qiluvchi o'zbek korxonalari amalda xalqaro due diligence standartlariga moslashishga majbur bo'lmoqda. Ushbu ta'sirning asosiy mexanizmlari quyidagi uch yo'nalish orqali namoyon bo'ladi[22]. Uchta yo'nalish alohida tahlilga loyiq:

1. To'qimachilik va kiyim-kechak ta'minot zanjirida shartnomaviy talablarning bosqichma-bosqich qo'llanilishi.

To'qimachilik va kiyim-kechak sanoati O'zbekistonning eksportga yo'naltirilgan strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Vertikal integratsiyalashgan ta'minot zanjirlari, xalqaro brendlar bilan hamkorlik hamda GSP+ preferensiyalaridan foydalanish natijasida o'zbek ishlab chiqaruvchilari Yevropa chakana bozorlariga faol integratsiyalashgan. Ayni paytda ushbu brend va chakana sotuvchilarning aksariyati Omnibus islohotidan keyin ham CSDDD doirasida

qolmoqda. Bunday kompaniyalar due diligence majburiyatlarini amalda, avvalo, shartnomaviy mexanizmlar orqali amalga oshiradi. Buni Germaniyaning LkSG va Fransiyaning loi de vigilance qonunlari qo'llanilishi tajribasi ham tasdiqlaydi. Xususan, yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalarga UNGP va OECD Due Diligence Guidance standartlariga asoslangan xulq-atvor kodekslari, ta'minot zanjirining kuzatuvchanligi (traceability), ijtimoiy va ekologik audit o'tkazish huquqi hamda talablar buzilgan taqdirda shartnomani bekor qilish to'g'risidagi bandlar kiritiladi. Natijada, Yevropa xaridorlariga mahsulot yetkazib berayotgan o'zbek korxonalari milliy qonunchilik bunday majburiyatlarni nazarda tutmasa ham, shartnomaviy munosabatlar orqali amalda due diligence tizimiga bo'ysunadi. Biroq bu jarayon muayyan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Yevropa kompaniyalari due diligence majburiyatlarini bajarishda davlat ko'rsatmalari, nazorat organlari bilan muloqot va kichik hamda o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. O'zbekistonlik yetkazib beruvchilar esa ayni talablarni tegishli institutsional yordam mavjud bo'lmagan sharoitda bajarishga majbur bo'lib, moslashuv xarajatlarini asosan o'z zimmasiga oladi.

Mazkur tarmoq Bryussel effektining obro' (reputatsion) kanalini ham yaqqol namoyon etadi. Yevropa bozoriga kirish, xalqaro brendlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni saqlab qolish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish tobora ko'proq barqarorlik hamda due diligence standartlariga rioya etishga bog'lanmoqda. Shu bois xalqaro bozor talablari O'zbekiston korxonalarini amalda ushbu standartlarni joriy etishga undaydi va milliy qonunchilikni xalqaro korporativ boshqaruv hamda barqarorlik standartlariga moslashtirish uchun kuchli tashqi rag'batni shakllantiradi.

2. Muhim xom ashyo va konchilik sektori

Bryussel effektining ikkinchi asosiy yo'nalishi konchilik sektori orqali namoyon bo'ladi. O'zbekiston oltin, mis va uran kabi strategik xom ashyo resurslarining yirik ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. 2024-yilda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi muhim xom ashyo sohasida strategik hamkorlik to'g'risidagi O'zaro Anglashuv bayonnomasi imzoladi[7]. Natijada, O'zbekistonning xom ashyo ta'minoti Yevropa Ittifoqining strategik xom ashyo siyosati va ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish tashabbuslarining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Mazkur sohada faoliyat yuritayotgan Yevropa xaridorlari, investorlari va qo'shma korxona hamkorlarining aksariyati CSDDD qo'llanish doirasiga kiruvchi yirik transmilliy kompaniyalardir. Shu bilan birga, konchilik xalqaro due diligence standartlarida doimiy ravishda yuqori xavfli sektor sifatida e'tirof etiladi. Bunga yer va suv resurslaridan foydalanish, mahalliy aholi manfaatlariga ta'sir, mehnatni muhofaza qilish hamda ekologik xavflarning yuqoriligi sabab bo'ladi.

Shu bois Yevropa muhim xom ashyo ta'minot zanjirlarida ishtirok etish amalda OECD Due Diligence Guidance for Responsible Mineral Supply Chains standartlariga asoslangan korporativ due diligence tizimini joriy etishni talab qiladi. Ushbu yondashuv Yevropa Ittifoqining batareyalar va nizoli minerallar sohasidagi maxsus tartibga solish mexanizmlari orqali allaqachon amaliyotga tatbiq etilgan bo'lib, O'zbekiston konchilik korxonalari uchun ham xalqaro bozorga kirishning muhim shartiga aylanib bormoqda[35].

3. Moliya va investitsiya shartliligi.

Bryussel effektining uchinchi kanali moliyaviy munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xalqaro moliya institutlari, jumladan EBRD, IFC va ADB, moliyalashtirilayotgan loyihalarga nisbatan ekologik va ijtimoiy standartlarni qo'llaydi. Mazkur talablar formal jihatdan due diligence deb nomlanmasa-da, mazmunan aynan inson huquqlari, mehnat va atrof-muhit xavflarini aniqlash, baholash va boshqarishga qaratilgan due diligence mexanizmlarini ifodalaydi.

Shuningdek, O'zbekistonning, xususan davlat korxonalari va suveren emitentlarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi tobora ESG mezonlari, barqarorlik bo'yicha oshkoralik talablari va mustaqil baholash (second-party opinion) mexanizmlariga bog'lanmoqda[31]. Bunga qo'shimcha ravishda, GSP+ rejimi ham barqarorlik talablarini hukumatlararo darajada mustahkamlaydi. Tarif preferensiyalarining saqlanib qolishi tegishli 27 ta xalqaro konvensiyaning samarali amalga oshirilishiga bog'liq bo'lib, bu jarayon Yevropa Ittifoqining muntazam monitoring va baholash mexanizmlari orqali nazorat qilinadi[5].

Umuman olganda, Bryussel effekti O'zbekiston uchun «vakilliksiz tartibga solish» (regulation without representation) holatini yuzaga keltiradi. Ya'ni, o'zbek korxonalari xalqaro bozorlarda faoliyat yuritish uchun xorijda ishlab chiqilgan due diligence standartlariga amalda rioya etishga majbur bo'lmoqda. Biroq ushbu talablarni qo'llab-quvvatlaydigan, muvofiqlikni standartlashtiradigan va ayniqsa kichik hamda o'rta korxonalar uchun moslashuv xarajatlarini kamaytiradigan milliy huquqiy va institutsional tizim hali shakllanmagan. Shu sababli keyingi bobda mazkur siyosiy-huquqiy muammoni bartaraf etishga qaratilgan islohot yo'nalishlari asoslab beriladi.

O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich tartibga solish modeli

Yuqoridagi amalga oshirilgan qiyosiy huquqiy tahlildan kelib chiqqan holda O'zbekistonda due diligence bazasini samarali loyihalashda quyidagi uchta fundamental tamoyil boshlovchi mezon sifatida xizmat qilishi lozim.

Mutanosiblik va ketma-ketlik tamoyili. Omnibus islohotlari tajribasi shuni yaqqol namoyon etdiki, korxonalarning salohiyati hamda mavjud siyosiy konsensusni ortda qoldiradigan

majburiy due diligence tizimini joriy etish tartibga solish samaradorligini pasaytirishi, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini murakkablashtirishi mumkin. O'zbekiston korporativ majburiyatlarni bosqichma-bosqich va mutanosib ravishda joriy etishga asoslangan normativ strategiyani tanlashi maqsadga muvofiqdir. Dastlab bunday yondashuvda oshkoralik, ya'ni axborotni oshkor qilish majburiyatini mustahkamlash, keying bosqichda esa korxonalar xulq-atvorini bevosita tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish va ularni amaliyotda joriy etish tavsiya qilinadi. Ushbu tartibga solish ko'lami, avvalo, yirik hamda davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan qo'llanilib, amaliy tajriba shakllanib samarali natijaga erishilgandan so'ng bosqichma-bosqich iqtisodiyotning boshqa subyektlariga kengaytirilishi lozim.

Funksional moslik tamoyili: transplantatsiya emas, adaptatsiya. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi Yevropa ittifoqining korporativ barqarorlik bo'yicha CSDDD direktivasi normalarini milliy huquq tizimiga so'zma-so'z ko'chirish emas. CSDDD Yevropa Ittifoqining rivojlangan institutsional infratuzilmasi hamda yillik aylanmasi juda yuqori bo'lgan yirik korporatsiyalar faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan o'ziga xos normativ model hisoblanadi. Shu sababli uning qoidalarini O'zbekiston huquqiy va iqtisodiy muhitiga moslashtirmasdan bevosita tatbiq etish kutilgan natijalarni bermasligi mumkin. Aksincha, ushbu yondashuv xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillarga, xususan BMTning Biznes va inson huquqlari bo'yicha yo'l-yo'riq tamoyillari (UNGPs) hamda OECDning mas'uliyatli biznes xulq-atvoriga oid standartlariga tayangan hamda ularning asosiy maqsad va vazifalarini saqlagan holda milliy sharoitga moslashtirilgan huquqiy mexanizmni shakllantirishdan iboratdir. Bunday adaptatsiya O'zbekiston korxonalarining iqtisodiy sharoit va amaldagi tartibga solish mexanizmini hisobga olgan holda xalqaro standartlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydani qo'lga kiritish tamoyili. Milliy due diligence tizimi savdo va investitsiyani qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning muhim elementi sifatida shakllantirilishi lozim. Bu tizimdan ko'zlangan asosiy maqsad esa O'zbekiston korporatsiyalarining Yevropa qiymat zanjirlarida ishtirok etishini yengillashtirish hamda ularning xorijiy hamkorlar oldidagi ishonchligini oshirishdan iboratdir. Natijada esa due diligence talablari xorijiy xaridorlar tomonidan yuklatiladigan qo'shimcha majburiyat sifatida emas, balki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va milliy iqtisodiy manfaatlarga xizmat qiladigan strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi bosqich: milliy ko'rsatmalar va institutsional asoslar

Birinchi bosqich alohida qonun qabul qilish zaruriyati mavjud emas. Hukumat, avvalo, UNGPs va OECDning Due diligence bo'yicha tavsiyalariga asoslangan milliy mas'uliyatli biznes yuritish ko'rsatmalarini ishlab chiqishi lozim. Ushbu ko'rsatmalar to'qimachilik, konchilik va

qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlar uchun maxsus sektor ilovalari bilan to'ldirilishi lozim. Shu bilan birga, korxonalarga yordam ko'rsatish, ularning murojaatlari va shikoyatlarini ko'rib chiqish hamda xorijiy organlar bilan hamkorlikni musahkamlash vazifalarini amalga oshiruvchi maxsus institutsional markaz tashkil etilishi zarur bunday tuzilma OECD uslubidagi milliy aloqa nuqtasi analogi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Eksport qiluvchi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun o'quv dasturlari tashkil etish va amaliy ko'mak berish orqali ularning salohiyatini yanada oshirish ushbu bosqichning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak. Shuningdek, UNGPs doirasida ishlab chiqilgan milliy harakat rejalari tajribasidan kelib chiqib, mamlakatda bazaviy baholash o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunday baholash asosiy tarmoqlardagi inson huquqlari va ekologik xavflarni aniqlash, amaldagi huquqiy va institutsional mexanizmlarni xaritalash hamda kelgusidagi islohotlar uchun zarur daliliy asosni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich: majburiy barqarorlik oshkoraligi

Ikkinchi bosqich korporativ boshqaruvda shaffoflik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlashga qaratiladi. Shu maqsadda yirik korporatsiyalar, davlat korxonalari va banklar tomonidan inson huquqlari, atrof-muhit hamda iqlim o'tish rejalari qamrab oluvchi yillik barqarorlik hisobotlarini taqdim etish joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunday hisobotlar milliy standartlar asosida tayyorlanishi, ushbu standartlar esa ISSB standartlari hamda European Sustainability Reporting Standards (ESRS) bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Oshkoralikni birinchi bosqichda joriy etish xalqaro amaliyotga mos keladi. Chunki hisobot berish tizimlari korporativ xulq-atvor majburiyatlariga nisbatan barqarorroq institutsional asos yaratadi hamda ishonchli ma'lumotlar bazasi, professional salohiyat va mustaqil kafolat tizimini shakllantirib, keyinchalik inson huquqlari va due diligence majburiyatlarini samarali joriy etish uchun zarur zamin yaratadi.

Uchinchi bosqich: sektorga xos due diligence burchlari

Uchinchi bosqich inson huquqlari va atrof-muhitga salbiy ta'sir xavfi yuqori bo'lgan tarmoqlarda, xususan konchilik, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va energetika sohalarida majburiy due diligence tizimini joriy etishga qaratiladi. Belgilangan mezonlardan yuqori kompaniyalar xavflarni aniqlash, oldini olish va kamaytirish choralari, operatsion darajadagi shikoyat mexanizmini hamda yillik due diligence hisobotini yuritishlari, ushbu talablar esa vakolatli organ tomonidan nazorat qilinishi lozim. Shu bilan birga, islohotlarda Omnibus paketidan kelib chiqadigan ikki muhim yondashuv aks ettirilishi zarur: birinchisi, xavfga asoslangan ustuvorlik tamoyili bo'lib, kompaniya ustuvor xavflarni asosli ravishda tanlagan taqdirda past ustuvorlikdagi ta'sirlar uchun javobgarlik yuklanmaydi; ikkinchisi esa kichik va o'rta korxonalarni himoya qilish

tamoyili bo'lib, due diligence majburiyatlarining shartnomalar orqali asossiz ravishda ularga yuklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

To'rtinchi bosqich: Mas'uliyatli biznes yuritish to'g'risidagi qonun

Yakuniy bosqich barcha talablarni yagona "Mas'uliyatli biznes yuritish to'g'risida"gi qonun asosida tizimlashtirishni talab qiladi. Mazkur qonun yirik kompaniyalar uchun iqtisodiyot bo'ylab due diligence burchlari, manfaatdor tomonlar bilan ishlash talablari, integratsiyalashgan barqarorlik oshkoraligi va sozlangan choralar tartibini qamrab olishi lozim. Bunda Omnibus islohotlari tajribasidan kelib chiqib, alohida due diligence deliktini joriy etish o'rniga, ushbu majburiyatni buzish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining aybga asoslangan javobgarlik qoidalarini bilan uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, da'vo qo'zg'atish huquqi, da'vo muddati va korporativ axborotdan foydalanish masalalari qonunda aniq tartibga solinishi zarur. Bu yondashuv javobgarlik mexanizmining barqarorligi va milliy fuqarolik-huquqiy tizim bilan izchilligini ta'minlaydi.

Xulosa. Yevropa Ittifoqining korporativ barqarorlik bo'yicha due diligence sohasidagi tajribasi qisqa vaqt ichida korporatsiyalarning inson huquqlari va atrof-muhitga ta'siri yuzasidan javobgarligini ixtiyoriy korporativ amaliyotdan majburiy huquqiy tartibga solish bosqichiga olib chiqdi. Shu bilan birga, Omnibus I islohotlari ushbu yondashuvning amaliy chegaralarini ham namoyon etdi. Omnibus islohotlari natijasida qayta ko'rib chiqilgan CSDDD direktivasi yirik kompaniyalarning faoliyat zanjiri bo'ylab inson huquqlari va atrof-muhit bilan bog'liq xavflarni aniqlash, baholash hamda boshqarishga oid asosiy majburiyatlarni saqlab qolgan bo'lsa-da, dastlab nazarda tutilgan ayrim qoidalar, jumladan iqlim o'zgarishiga doir qo'shimcha majburiyatlar hamda yagona fuqarolik-huquqiy javobgarlik mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi. Shuningdek, Direktiva qabul qilinishidan avval shakllangan sud amaliyoti, xususan Vedanta, Okpabi va Milieudefensie ishlari korporativ javobgarlik bosh kompaniyaning nazorat va boshqaruv vakolatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqlaydi, biroq bunday javobgarlikning chegaralari yuzasidan ilmiy va amaliy munozaralar hanuz davom etmoqda.

O'zbekiston uchun ushbu tajribaning ahamiyati CSDDD modelini to'liq ko'chirib olishda yoki aksincha, uni e'tiborsiz qoldirishda emas. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi milliy qonunchilik xalqaro due diligence standartlari nazarda tutadigan tartibga solish elementlarining faqat bir qismini qamrab oladi. Shu bilan birga, xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston korxonalari ushbu talablarni amalda allaqachon bajarishga majbur bo'lmoqda. Bunday talablar asosan xorijiy xaridorlar, moliyaviy institutlar hamda xalqaro shartnomalar orqali qo'yilmoqda va ularning mazmuni milliy huquq tizimi tomonidan emas, tashqi bozor ishtirokchilari tomonidan belgilanmoqda.

Shu sababli, maqolada O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin bo'lgan tartibga solish modeli taklif etiladi. Mazkur model dastlab metodik tavsiyalar va institutsional salohiyatni rivojlantirishdan boshlanib, keyinchalik majburiy oshkoralik talablarini joriy etish, alohida tarmoqlar uchun xulq-atvor majburiyatlarini belgilash hamda yakunda milliy huquq tizimiga mos keluvchi "Mas'uliyatli biznes yuritish to'g'risida"gi qonunni qabul qilishni nazarda tutadi.

Omnibus islohotlari ushbu yondashuv zaruratini inkor etmaydi, aksincha, uni yanada asoslaydi. Yevropa Ittifoqining amaliy tajribasi due diligence tizimining qaysi elementlari uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Shu bilan birga, korporativ barqarorlik masalalarini faqat kompaniyalarning ixtiyoriy tashabbusiga qoldirish endi yetarli emasligi ham tasdiqlandi.

O'zbekiston uchun xalqaro due diligence standartlarini bosqichma-bosqich milliy qonunchilikka integratsiya qilish investorlar ishonchini mustahkamlash, xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, korporativ shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, eksport faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar xalqaro barqarorlik talablariga bugunning o'zida duch kelayotgan bir sharoitda, davlat tomonidan yaratiladigan aniq va izchil huquqiy mexanizmlar ushbu talablarga rioya etish xarajatlarini kamaytiradi hamda milliy korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Commission Delegated Regulation (EU) 2023/2772 of 31 July 2023 supplementing Directive 2013/34/EU as regards sustainability reporting standards [2023] OJL;
2. Directive (EU) 2022/2464 of the European Parliament and of the Council of 14 December 2022 as regards corporate sustainability reporting (CSRD) [2022] OJL322/15
3. Directive (EU) 2024/1760 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 on corporate sustainability due diligence [2024] OJ L 2024/1760;
4. Directive (EU) 2026/470 of the European Parliament and of the Council amending Directive 2013/34/EU, Directive (EU) 2022/2464 and Directive (EU) 2024/1760 (Omnibus I) [2026] OJ L (26 February 2026);
5. Regulation (EU) No 978/2012 of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 applying a scheme of generalized tariff preferences [2012] OJ L303/1;
6. Regulation (EU) 2023/1542 of the European Parliament and of the Council of 12 July 2023 concerning batteries and waste batteries [2023] OJ L191/1;

7. Regulation (EU) 2024/1252 of the European Parliament and of the Council of 11 April 2024 establishing a framework for ensuring a secure and sustainable supply of critical raw materials [2024] OJL;

8. Paris Agreement (adopted 12 December 2015, entered into force 4 November 2016) 3156 UNTS 79;

9. UN Human Rights Council, 'Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations "Protect, Respect and Remedy" Framework' (21 March 2011) UN Doc A/HRC/17/31;

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, № O'RQ-798 (2022-yil 28-oktabr);

12. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni, № O'RQ-598 (2019-yil 25-dekabr);

13. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni, № 223-I (1996-yil 26-aprel, o'zgartirishlar bilan);

14. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni (1992-yil 9-dekabr, o'zgartirishlar bilan);

15. Gesetz über die unternehmerischen Sorgfaltspflichten in Lieferketten (LkSG), BGBl 2021 I 2959 (Germaniya);

16. Loi n° 2017-399 du 27 mars 2017 relative au devoir de vigilance des sociétés mères et des entreprises donneuses d'ordre, JORF n° 0074 (Fransiya);

17. Lov om virksomheters åpenhet (åpenhetsloven), LOV-2021-06-18-99 (Norvegiya);
Sud ishlari.

18. Milieudéfensie and Others v Royal Dutch Shell plc, Hague District Court, 26 May 2021, ECLI:NL: RBDHA:2021:5337;

19. Milieudéfensie and Others v Shell plc, Hague Court of Appeal, 12 November 2024

20. Okpabi v Royal Dutch Shell plc [2021] UKSC 3, [2021] 1 WLR 1294

21. Vedanta Resources plc v Lungowe [2019] UKSC 20, [2020] AC 1045

Ilmiy adabiyotlar.

22. Bradford A, The Brussels Effect: How the European Union Rules the World (OUP 2020);

23. Clapham A, Human Rights Obligations of Non-State Actors (OUP 2006)

Deva S, Regulating Corporate Human Rights Violations: Humanizing Business (Routledge 2012);

24. Deva S and Bilchitz D (eds), *Human Rights Obligations of Business: Beyond the Corporate Responsibility to Respect?* (CUP 2013);
25. Vernon R, *Sovereignty at Bay: The Multinational Spread of US Enterprises* (Basic Books 1971);
26. Bright C and Bueno N, 'Insights from National Mandatory Human Rights Due Diligence Legislation' in Dorothee Baumann-Pauly and others (eds), *Teaching Business and Human Rights* (Edward Elgar 2023);
27. Bueno N and Bright C, 'Implementing Human Rights Due Diligence through Corporate Civil Liability' (2020) 69 *International and Comparative Law Quarterly* 789;
28. Lichuma CO, 'Mandatory Human Rights Due Diligence Laws Caught Between Rituals and Ritualism' (2024) 9 *Business and Human Rights Journal*;
29. McCorquodale R, Smit L, Neely S and Brooks R, 'Human Rights Due Diligence in Law and Practice' (2017) 2 *Business and Human Rights Journal* 195;
30. Business & Human Rights Resource Centre, 'EU CSDDD: Omnibus I Amendments' (February 2026);
31. EBRD, *Environmental and Social Policy* (2019)
32. IFC, *Performance Standards on Environmental and Social Sustainability* (2012);
33. IFRS Foundation, *IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information and IFRS S2 Climate-related Disclosures* (2023);
34. International Labour Organization, *ILO Standards and Responsible Supply Chains* (2022);
35. OECD, *Due Diligence Guidance for Responsible Business Conduct* (OECD Publishing 2018).